



**KONVERGENT TARIF REJALARIDA TAQDIM ETILADIGAN  
TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI TAQDIM ETISH VA  
TARIFIKATSIYALASH QOIDALARI (jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxsni  
tashkil qilmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni amalga oshiradigan fuqarolik-  
huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan shaxslar uchun).**

## **2.1. Umumiy qoidalar**

2.1.1. Ushbu qoidalar jismoniy shaxs bo'lgan Abonentlar, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni amalga oshiradigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan shaxslar uchun Internet tarmog'i va IP-telefoniya uganish xizmatini o'z ichiga olgan konvergent tarif rejalarida taqdim etiladigan teleokmmunikatsiya xizmatlarini taqdim etish tartibini belgilaydi.

2.1.2. Ushbu xizmatni taqdim etish qoidalari va shartlarida quyidagi ta'riflar va qisqartmalar qo'llaniladi:

**Hisob-kitob davri** – tarif rejasiga shartlariga muvofiv xizmatlar uchun amalga oshiriladigan vaqt oraliq'i. Hisob-kitob davri bir oy davom etadi va Abonent uchun Internet tarmog'iga ulanishga ruxsat etilgan kundan boshlab, belgilanadi (billing tizimining texnologik xususiyatlari sabab surilishlarni hisobga olgan holda);

**Hisob-kitob sanasi** – hisob-kitob davrining birinchi kuni.

**Konvergent tarif rejasি** – yagona abonent to'lovi bilan bir nechta turdagи telekommunikatsiya xizmatlarini o'z ichiga olgan tarif rejasи.

## **2.2. Xizmatlarni taqdim etish va tarifikatsiyalash qoidalari**

2.2.1. Konvergent tarif rejalarida bir nechta xizmatlar (Internet, IP -telefoniya) uchun yagona shaxsiy hisob taqdim etiladi. Yagona abonent to'lovi faqat tarif rejasiga shartlariga muvofiq konvergent tarif rejasiga kiritilgan xizmatlar uchun yechib olinadi, qo'shimcha xizmatlar yoki belgilangan limitdan ortiq foydalanganlik uchun mablag'lar alohida narx bo'yicha yechib olinadi.

## **2.3 Boshqa shartlar**

2.3.1. Amaldagi abonentlar va IP-telefoniya xizmatlarini o'z ichiga olmagan boshqa tarif rejalaridan o'tgan abonentlar IP-telefoniya xizmatlariga ulanish uchun UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofislariga murojaat qilishi lozim.

2.3.2. IP-telefoniya xizmatlarini o‘z ichiga olgan tarif rejalarini seriyasidan Internet-xizmatlari bo‘yicha boshqa tariflar seriyasidagi (IP-telefoniya xizmatisiz) tarif rejasiga o‘tgan taqdirda, IP-telefoniya xizmatlari o‘chirib qo‘yiladi. Alohidalar tarif rejasida IP-telefoniya xizmatlari ko‘rsatilishini qayta tiklash uchun UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisiga shartnomani yangilash uchun murojaat qilish lozim.

2.3.3. Konvergent tarif rejalarida xizmatlarni taqdim etish va tarifikatsiyalashning qolgan shartlari ushbu qoidalarning 1-bo‘limida ko‘rsatib o‘tilgan.